



## SOCIO-PHILOSOPHICAL FOUNDATIONS OF REINTEGRATING CONVICTED PERSONS INTO SOCIETY

*Ulugbek Saydullayev*

*PhD, associate professor,*

*Head of Cycle, University of Military Security and Defense*

*Tashkent, Uzbekistan*

### ABOUT ARTICLE

**Key words:** resocialization, marginal personality, penitentiary system, social integration, intercultural communication, stage of denial, social adaptation, professional deformation, socio-philosophical analysis, criminal subculture.

**Received:** 20.05.26

**Accepted:** 21.05.26

**Published:** 22.05.26

**Abstract:** This article examines the socio-philosophical essence and stage-by-stage structure of the resocialization process for individuals sentenced to imprisonment. Issues of personal identity, cultural belonging, and social adaptation of convicted persons are considered from the perspective of social philosophy. The status of a convicted person as a marginal individual situated at the crossroads of two cultures – the generally recognized culture of society and the culture of the criminal community – is analyzed. Based on M. Bennett's intercultural communication model, six consecutive stages of resocialization are examined: denial, defense, minimization, acceptance, adaptation, and integration. Professional deformation of penitentiary staff, communicative barriers, group thinking, and ethnocentrism are considered as key factors impeding resocialization. The results of the study show that the effectiveness of resocialization depends not so much on improving legislation as on the practical implementation of each of its stages. From the perspective of social philosophy, the necessity of treating a convicted person not as an object of influence but as a subject capable of self-development is substantiated.

## SOBIQ MAHKUMLARNI JAMIYATGA QAYTA INTEGRATSIYA QILISHNING IJTIMOIIY-FALSAFIY ASOSLARI

*Ulug‘bek Ubaydullayevich Saydullayev*

*Phd, dotsent*

*Harbiy xavfsizlik va mudofaa univesiteti siki boshlig‘i*

*Toshkent, O‘zbekiston*

---

#### MAQOLA HAQIDA

---

**Kalit so‘zlar:** resotsializatsiya, marginal shaxs, penitensiar tizim, ijtimoiy integratsiya, madaniyatlararo kommunikatsiya, inkor etish bosqichi, ijtimoiy moslashish, kasbiy deformatsiya, ijtimoiy-falsafiy tahlil, jinoiy submadaniyat.

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada ozodlikdan mahrum etilgan shaxslarni jamiyatga qayta integratsiya qilish jarayonining ijtimoiy-falsafiy mohiyati va bosqichlari tadqiq etiladi. Inson shaxsi, uning madaniy identifikatsiyasi va ijtimoiy muhitga moslashishi masalalari falsafiy nuqtai nazardan ko‘rib chiqiladi. Mahkum shaxsiyatining umumiy jamiyat madaniyati va jinoiy submadaniyat chorrahasida joylashgan “marginal shaxs” sifatidagi mavqei tahlil qilinadi. M.Bennetning madaniyatlararo kommunikatsiya modeli asosida resotsializatsiya jarayonining oltita ketma-ket bosqichi - inkor etish, himoyalanih, kamsitish, tan olish, moslashish va integratsiya o‘rganiladi. Penitensiar muassasalar xodimlarining kasbiy deformatsiyasi, mahkumlar orasidagi kommunikativ to‘siqlar, guruhchilik va etnosentrizm resotsializatsiyaga ta’sir etuvchi asosiy omillar sifatida ko‘rib chiqiladi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, resotsializatsiya samaradorligi qonunchilikni takomillashtirishga emas, balki jarayonning har bir bosqichini amaliy ta’minlashga bog‘liq. Ijtimoiy falsafa nuqtai nazaridan mahkumga “narsa” sifatida emas, balki o‘zini o‘zi rivojlantira oladigan sub’ekt sifatida munosabatda bo‘lish zarurligi asoslanadi.

---

#### СОЦИАЛЬНО-ФИЛОСОФСКИЕ ОСНОВЫ РЕИНТЕГРАЦИИ БЫВШИХ ОСУЖДЁННЫХ В ОБЩЕСТВО

*Улугбек Убайдуллаевич Сайдуллаев*

*PhD, доцент,*

*Начальник цикла Университета военной безопасности и обороны*

*Ташкент, Узбекистан*

---

#### О СТАТЬЕ

---

**Ключевые слова:** ресоциализация, маргинальная личность, пенитенциарная система, социальная интеграция, межкультурная коммуникация, стадия отрицания, социальная адаптация, профессиональная деформация, социально-философский анализ, криминальная субкультура.

**Аннотация:** В данной статье исследуется социально-философская сущность и стадийная структура процесса ресоциализации лиц, осуждённых к лишению свободы. Рассматриваются вопросы личностной идентификации, культурной принадлежности и социальной адаптации осуждённого с позиций социальной философии. Анализируется статус осуждённого как маргинальной личности, находящейся на стыке общепризнанной культуры общества и культуры криминального сообщества. На основе модели межкультурной коммуникации М.Беннета рассматриваются шесть последовательных стадий ресоциализации: отрицание, защита, умаление, признание, адаптация и интеграция. Профессиональная деформация сотрудников пенитенциарных учреждений, коммуникативные барьеры, групповое мышление и этноцентризм рассматриваются как ключевые факторы, препятствующие ресоциализации. Результаты исследования показывают, что эффективность ресоциализации зависит не столько от совершенствования законодательства, сколько от практического обеспечения каждой её стадии. С позиций социальной философии обосновывается необходимость отношения к осуждённому не как к объекту воздействия, а как к субъекту, способному к саморазвитию.

---

**Kirish.** Zamonaviy jamiyat oldida turgan eng dolzarb muammolardan biri jinoiy javobgarlikka tortilgan va ozodlikdan mahrum etilgan shaxslarni jamiyatga qayta integratsiya qilish masalasidir. Bu masala nafaqat huquqiy yoki kriminologik ahamiyatga ega, balki chuqur ijtimoiy-falsafiy mazmun kasb etadi. Zero, resotsializatsiya jarayoni inson shaxsiyatini, uning erkinligini, madaniy o'zligini va jamiyat bilan munosabatini qayta belgilash jarayonidir.

Ijtimoiy falsafa nuqtai nazaridan resotsializatsiya masalasi “ijtimoiy borliq” va “shaxs” o'rtasidagi dialektik munosabatni aks ettiradi. Mahkum shaxsi, uning qadriyatlar tizimi, atrof-muhitga munosabati va ijtimoiy rolini o'zgartirish mumkinmi? Va agar mumkin bo'lsa, bu

o'zgarish qay tariqa va qanday mexanizmlar orqali amalga oshadi? Ushbu savollar tadqiqotimizning markaziy o'qini tashkil etadi.

Penitensiar tizimning asosiy vazifasi mahkumni jazolash emas, balki uni jamiyatga yaroqli a'zo sifatida tayyorlashdir. Biroq amaliyot ko'rsatadiki, ozodlikdan mahrum etish muassasalari resotsializatsiya funksiyasini to'liq bajarishga ojizlik qiladi. Buning sabablari ko'p qirrali: tizimning ta'sir usullari, personalning kasbiy tayyorgarligi, mahkumlar orasida shakllangan submadaniyat va boshqalar. Mazkur tadqiqotda aynan shu qirralarni ijtimoiy falsafiy metodologiya asosida ko'rib chiqish maqsad qilingan.

Tadqiqotning ilmiy ahamiyati shundan iboratki, u mahkumni "narsa" yoki "ta'sir ob'ekti" sifatida emas, balki o'zini o'zi rivojlantira oladigan sub'ekt – marginalijtimoiy holatdagi inson – sifatida ko'rishni taklif etadi. Shundagina resotsializatsiya jarayonini samarali tushunish va unga ta'sir ko'rsatish mumkin bo'ladi.

**Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili.** Mahkumlarni jamiyatga qayta integratsiya qilish masalasi keng ilmiy adabiyotlar doirasida o'rganilgan. Ushbu tadqiqotda foydalanilgan manbalar orasida sotsiologiya, ijtimoiy psixologiya, penitensiaristika va madaniyatlararo kommunikatsiya sohalari namoyandalarining asarlari mavjud.

Resotsializatsiyaning nazariy asoslarini tushunishda ijtimoiy identifikatsiya masalasi markaziy o'rinni egallaydi. Sotsiologik nuqtai nazardan sotsializatsiyaning klassik ta'rifi N.Aberkrombi va boshqalar tomonidan berilgan: ushbu ta'rif resotsializatsiyani mazkur dissertatsiyada ikkilamchi sotsializatsiya jarayoni sifatida ko'rib chiqishda poydevor vazifasini o'taydi [1]. Ijtimoiy tizim ichidagi normalar va qoidalarning bajarilishini ta'minlash masalasiga A.A.Velk, R.T.Takeeva, A.A.Gorelov kabi olimlar o'z tadqiqotlarida katta ahamiyat berishgan.

Mahkumlarni tarbiyalash va ularning jamiyatga moslashish jarayoni, shuningdek mahkumlar va muassasa ma'muriyati o'rtasidagi munosabatlarning murakkabligi to'g'risida V.M.Trubnikov alohida tadqiqot olib borgan. Uning fikriga ko'ra, ijtimoiy moslashish mexanizmi ayniqsa ozodlikdan so'nggi davrda o'ta nozik va zaruriy tarzda ishlashi lozim[2].

Mahkumlar orasidagi kommunikativ to'siqlarni tasniflashda I.A.Sternin ishlagan klassifikatsiya alohida ahamiyatga ega. U til, madaniy, ijtimoiy, rol, psixologik va kognitiv to'siqlar bilan bir qatorda guruhchilik va etnotsentrizmni ham alohida ajratib ko'rsatadi[3]. Mazkur to'siqlar penitensiar muhitda oddiy jamiyatdagiga qaraganda ancha keskinroq namoyon bo'ladi, chunki mahkumlar o'zlari mansub guruh normalarini mutlaq haqiqat deb qabul qilishga moyil bo'lishadi.

Penitensiar personalning kasbiy deformatsiyasi masalasini G.F.Xoxryakov batafsil o'rgangan. Uning tadqiqotida shu narsa isbotlanganki, mahkumlar qancha qattiq rejimda ushlansa, aksentuatsiyalangan shaxslar ulushi shuncha ortadi[4]. Bu esa rejim qattiqligi bilan resotsializatsiya samaradorligi o'rtasidagi teskari bog'liqlikni ko'rsatadi.

A.Maslouning insoniy ehtiyojlar ierarxiyasi konsepsiyasi mahkumlar xulq-atvorini tushunish uchun nazariy baza vazifasini o'taydi. Yu.V.Baranov ushbu konsepsiya asosida mahkumlarni ustun ehtiyojlari bo'yicha guruhlariga ajratishni taklif etadi va har bir guruhga nisbatan farqli tarbiyaviy yondashuvlar zarurligini asoslaydi. Ishlab chiqilgan guruhlash esa Maslouning gumanistik konsepsiyasi asosida qurilgan[5].

Mahkumlarni jamiyatga qayta integratsiya qilish jarayonini madaniyatlararo kommunikatsiya modellari orqali tushuntirishga urinish ilmiy jihatdan juda qiziqarli yondashuvdir. T.G.Grushevskaya va boshqalar tomonidan tayyorlangan asarda M.Bennetning madaniyatlararo sezgirlik modeli batafsil bayon etilgan: "Yangini o'zlashtirish jarayoni ketma-ket inkor etish, himoyalash, kamsitish bosqichlarini, undan so'ng esa tan olish, moslashish va integratsiya bosqichlarini o'z ichiga oladi"[6]. Baranov ushbu modelni mahkumni marginal shaxs sifatida tavsiflashga tatbiq etadi.

Madaniyatning predmetli-buyumiy talqini va mafkuraviy ahamiyatiga doir ilmiy bahslarda L.Uaytning madaniyat nazariyasi muhim o'rin tutadi. Ijtimoiy sog'lom jamiyat konsepsiyasi esa E.Frommning "Sog'lom jamiyat" asaridan olingan: radikal gumanizm pozitsiyasida turgan tadqiqotchilar mahkumga nisbatan ham mana shu yondashuvni tavsiya etishadi[7].

Mahkumlarning ijtimoiy foydali aloqalarini tiklash masalasida V.Ye.Yusanin xavfsizlik organlari ma'muriyatining profilaktik faoliyatini tahlil etgan. U penitensiar muassasaning tizimli-profilaktik faoliyatini resotsializatsiya jarayonida asosiy tayanch sifatida ko'radi[8]. Shu kabilar orasida mahkumlarning ijtimoiy mustaqil tashkilotlari faoliyatiga doir F.Pisarev tomonidan bajarilgan tadqiqot ham alohida ahamiyatga ega[9].

Mahkumlar ijtimoiy tavsifiga doir maxsus ro'yxatga olish materiallari asosida A.S.Mixlin tahririyatida nashr etilgan tadqiqot penitensiar tizim samaradorligini amaliy baholash uchun qimmatli statistik ma'lumot manbai sifatida xizmat qiladi [10].

Yuqorida ko'rib chiqilgan adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, resotsializatsiya masalasi ko'p qirrali ilmiy tadqiqotlar predmeti bo'lib, unda huquqiy, psixologik, sotsiologik va madaniyatlararo jihatlar o'zaro chambarchas bog'liq. Mazkur maqolada aynan ijtimoiy-falsafiy rakurs asosiy nazariy chorcheva vazifasini o'taydi.

**Tahlil va natijalar.** Ijtimoiy falsafa nuqtai nazaridan mahkumning jamiyatdagi mavqeini aniqlash resotsializatsiya jarayonini tushunishning birinchi sharti hisoblanadi. Ozodlikdan mahrum etilgan shaxs umumiy jamiyat madaniyati va jinoiy submadaniyat chorrahasida turuvchi “marginal shaxs”ga aylanadi. Bu ikki madaniy olam o‘rtasidagi ziddiyat aslida mahkumning ichki dunyosida kechadigan qadriyatlar to‘qnashuvidan iboratdir. Marginallik faqat ijtimoiy mavqening o‘zgarishi emas, u shaxsning o‘zini-o‘zi identifikatsiyalashidagi bo‘shliq, ya’ni “men kimman?” degan savolga aniq javob bera olmaslikdir.

Jinoiy submadaniyat o‘ziga xos qadriyatlar tizimi, xulq me’yorlari va tilga ega. Mahkum ushbu submadaniyatga bexosdan singib ketadi, chunki u yashayotgan muhit ana shu submadaniyatni takror ishlab chiqaradi. Oddiy jamiyatning normalari esa ayni paytda u uchun begona va xavfli bo‘lib ko‘rina boshlaydi. Natijada mahkum jamiyatga qaytishda ikki tomonlama psixologik to‘siq bilan yuzma-yuz keladi: jinoiy guruhdan psixologik ajralish va umumiy jamiyatga psixologik yaqinlashish zarurati.

Ijtimoiy falsafada “o‘zga” va “o‘zlik” tushunchalari orasidagi ziddiyat mazkur holatda ayniqsa yorqin namoyon bo‘ladi. Mahkum jamiyat ko‘zida “o‘zga”ga aylanadi, ammo o‘zi ichida “o‘zlik” izlashda davom etadi. Marginal holat bu ikki qutb orasidagi tebranishdan iborat.

Resotsializatsiyaning bosqichli tuzilishi va uning ijtimoiy-falsafiy talqini.

M.Bennetning madaniyatlararo sezgirlik modeli resotsializatsiya jarayonini tushunishda mutlaqo yangi nazariy imkoniyat ochib beradi. Ushbu model bo‘yicha yangi madaniyatni o‘zlashtirish – bu ketma-ket oltita bosqichdan iborat dialektik jarayon. Mazkur bosqichlarni mahkumning jamiyatga qaytish jarayoniga tatbiq etish nihoyatda samarali natija beradi.

Birinchi bosqich – inkor etish. Mahkum jamiyatning normalari va qadriyatlarini o‘ziga tegishli deb qabul qilmaydi. Ijtimoiy izolyatsiya bu boqichni mustahkamlaydi: jismoniy mahbuslik ruhiy inkorga aylanadi. Dialektik jihatdan ushbu bosqich antitezis xususiyatiga ega – mahkumjamiyatga nisbatan o‘zini “o‘zga dunyo” sifatida his qiladi.

Ikkinchi bosqich – himoyalanih. Mahkum jamiyatga nisbatan diffamatsiya – salbiy tavsiflar berishga o‘tadi. U o‘zini jabrdiyda deb hisoblashga, jamiyatni va huquqni saqlash organlarini “dushman” deb belgilashga moyil bo‘ladi. Ijtimoiy falsafada bu hodisa “o‘zgani kamsitish orqali o‘zni mustahkamlash” mexanizmi sifatida tushuntiriladi. Ushbu bosqichning xavfi shundaki, inkordan himoyalanihga o‘tish doirasida aylana paydo bo‘lishi mumkin. Resotsializatsiya “inkor – himoya – inkor” doirasi ichida aylanib qoladi. Ushbu doirani sindirish uchun penitensiar tizim xodimlarining yuqori malakasi va jamoatning chidamliligi zarur.

Uchinchi bosqich – kamsitish. Mahkum odamlar orasidagi tafovutlarni tan olish, ammo ularni ahamiyatsiz deb hisoblash darajasiga yetib keladi. Shaxs yagona insoniy mohiyat mavjudligi g‘oyasini o‘zlashtiradi. Ushbu bosqich tashqaridan insonning kamsitilishiga o‘xshaydi, ammo aslida rivojlanishning zaruriy pog‘onasidir. Ijtimoiy falsafada ushbu holat “universalizm”ga murojaat sifatida ko‘riladi – mahkum o‘zini va boshqalarni umuminsoniy o‘lchovda baholashga o‘ta boshlaydi.

To‘rtinchi bosqich – tan olish (priznanie). Bu bosqich qadriyatlarning nisbiyligini va turli dunyoqarashlarning o‘rinliligini anglashni o‘z ichiga oladi. Mahkum jamiyatning normalariga nisbatan mutlaq inkor yoki mutlaq tan olish pozitsiyasidan chekinib, ularni insoniy qobiliyatning mahsuli sifatida ko‘ra boshlaydi. Ijtimoiy falsafada bu “dialog” imkoniyati ochiladigan yagona lahza hisoblanadi.

Beshinchi va oltinchi bosqichlar moslashish va integratsiya, mahkumning jamiyatga haqiqiy qaytishini ifoda etadi. Ammo ushbu bosqichlarga yetish uchun avvalgi to‘rtta bosqich mazkur ishda ko‘rsatilgan shaklda, to‘liq va muntazam tarzda o‘tilishi shart. Moslashish passiv emas, balki mahkum yangi ijtimoiy rolni o‘zlashtirib, qadriyatlar tizimini ichki refleksiya orqali qayta ko‘rib chiqadi.

Kommunikativ to‘siqlar va personalning kasbiy deformatsiyasi. Resotsializatsiya jarayoniga ta’sir etuvchi yana bir muhim omil penitensiar muassasa ma’muriyati va mahkumlar o‘rtasidagi kommunikatsiya sifatidir. Til to‘siqlari, madaniy tafovutlar, rol va psixologik to‘siqlar, guruhchilik va etnotsentrizm – bularning barchasi muloqot samarasini keskin pasaytiradi.

Guruhchilik (gruppotsentrizm) mahkumlar orasida ayniqsa kuchli namoyon bo‘ladi. Mahkum o‘zi mansub guruh normalarini yakkayu yagona to‘g‘ri deb hisoblashga odatlanadi va tashqi normalarga nisbatan o‘ta shubhali bo‘ladi. Shu tarzda ijtimoiy aloqalar tizimi tobora torayib boradi va mahkum o‘zi uchun yopiq bir ijtimoiy “g‘or” yaratib oladi.

Personalning kasbiy deformatsiyasi masalasi ham o‘ta muhim ahamiyatga ega. Xodimlar orasida shubhachilik, huquqiy rigorizm, o‘zini hamma narsaga haqli deb his qilish kabi patologik holatlar vujudga keladi. Bunday xodim mahkumni sub’ekt sifatida emas, balki boshqarilishi lozim bo‘lgan ob’ekt sifatida ko‘radi. Natijada resotsializatsiya uchun zaruriy bo‘lgan insoniy muloqot va ishonch munosabatlari yuzaga chiqmaydi.

Ijtimoiy falsafa nuqtai nazaridan mazkur holatni E. Fromm ifodalagan “illat tuzilmali jamiyat” konsepsiyasi orqali tushuntirish mumkin: tizim o‘zini “sog‘lom” deb hisoblaydi, holbuki u o‘z ichida patologik munosabatlarni qayta-qayta ishlab chiqaradi. Penitensiar tizim ham aynan

ana shunday xavf ostidagi tizim – u mahkumni “tuzatmoqchi” bo‘ladi, ammo buning uchun zaruriy ishonch va hurmatni mustahkamlashdan yiroq turadi.

Mahkumni tashqidan tuzatishga urinish o‘zida falsafiy qarama-qarshilikni tashiydi: tashqi majburlash orqali ichki o‘zgarish hosil qilib bo‘lmaydi. Mahkumning o‘z istagi, motivatsiyasi va sub’ektiv pozitsiyasi inobatga olinmasa, islomiy tasavvur tilida aytganda –“surat” o‘zgarishi mumkin, ammo “siyrat” o‘zgarmaydi.

Ozodlikka tayyorlash jarayonining ijtimoiy-falsafiy ahamiyati. Resotsializatsiyaning eng muhim va ko‘pincha e’tibordan chetda qoladigan bosqichi mahkumni ozodlikka tayyorlash davri. Bu davr odatda mahkumiylik muddati tugashidan 3-6 oy avvalgi vaqt chinakam “o‘tish” makonini tashkil etadi. Marginal holat aynan shu pallada eng chuqur va o‘tkir tarzda boshdan kechiriladi.

Ijtimoiy foydali aloqalarni tiklash va mustahkamlash uchun imkoniyat yaratilmasa, mahkum jamiyatga begona, tayyorlanmagan va resurssiz holda kirib boradi. Natijada residivizm xavfi ortadi. Bu masalaning yechimi sifatida “o‘tish muassasalari” modelini ko‘rib chiqish mumkin. Bu shakl mahkumga ijtimoiy va mehnatga doir ko‘nikmalarni nazoratli sharoitda shakllantirish imkonini beradi.

Ijtimoiy falsafada ushbu bosqich “o‘tish ontologiyasi” sifatida tavsiflanishi mumkin. Mahkum “eski o‘zi” bilan “yangi o‘zi” orasidagi ko‘prikda turgan shaxsdir. Bu ko‘prikni yaratmasdan turib integratsiyani ta’minlab bo‘lmaydi.

**Xulosa va takliflar.** Ushbu tadqiqot mahkumlarni jamiyatga qayta integratsiya qilish jarayonini ijtimoiy falsafiy metodologiya doirasida tahlil etdi. Olingan natijalar asosida quyidagi xulosalarni bayon etish mumkin.

Birinchidan, resotsializatsiya bu nafaqat huquqiy yoki tarbiyaviy jarayon, balki chuqur ontologik o‘zgarishni talab etadigan insoniy fenomendir. Mahkum marginal shaxs sifatida ikki madaniy olamning tortishishi ostida yashaydi. Uni bir madaniyatdan ikkinchisiga “o‘tkazish” tizim tomonidan amalga oshirilmaydi. Bu jarayon mahkumning o‘z ichki resurslari orqali kechadi, tizim esa faqat shart-sharoit yaratishi mumkin.

Ikkinchidan, resotsializatsiyaning oltita ketma-ket bosqichi – inkor, himoya, kamsitish, tan olish, moslashish va integratsiya – bir-birini mantiqiy tarzda taqozo etadi. Biror bosqichni sun’iy ravishda “o‘tkazib yuborish” mumkin emas. Bu tushuncha penitensiar amaliyot uchun prinsipial ahamiyatga ega: tarbiya va ta’sir choralari mahkumning hozirgi bosqichiga mos bo‘lishi zarur.

Uchinchidan, penitensiar tizim xodimlarining kasbiy deformatsiyasi resotsializatsiyaga jiddiy to‘siq hisoblanadi. Bu masalani hal etmasdan turib isloh jarayonida haqiqiy yutuqlarga

erishib bo'lmaydi. Xodimlarni insonparvarlik va muloqot madaniyati ruhida tayyorlash penitensiar tizim islohotining ajralmas qismi bo'lishi lozim.

To'rtinchidan, mahkumni ozodlikka tayyorlash bosqichi mustaqil va alohida e'tiborga munosib dastur sifatida ishlab chiqilishi kerak. Ijtimoiy foydali aloqalarni tiklash, mehnat ko'nikmalarini rivojlantirish va psixologik tayyorgarlik ushbu dasturning asosiy yo'nalishlari bo'lishi lozim.

Beshinchidan, ijtimoiy falsafa nuqtai nazaridan mahkumga nisbatan "ta'sir ob'ekti" yondashuvidan voz kechish va uni "rivojlanishga qodir sub'ekt" sifatida ko'rishga o'tish prinsiplial ahamiyatga ega. Bu nafaqat falsafiy pozitsiya, balki amaliy samaradorlikning garovi hamdir.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Аберкромби Н. и др. Социологический словарь / Пер. с англ.; под ред. С. А. Ерофеева. – М., 2000. – С. 293.
2. Трубников В. М. Механизм социальной адаптации освобождённых от отбывания наказания. – Киев, 1990. – С. 29.
3. Стернин И. А. Основы речевого воздействия. – Воронеж, 2000. – С. 22–40.
4. Хохряков Г. Ф. Парадоксы тюрьмы. – М.: Юрид. лит., 1991. – С. 46.
5. Минязева Т. Ф. Правовой статус личности осуждённых в Российской Федерации. – М., 2001. – С. 35.
6. Грушевицкая Т. Г. и др. Основы межкультурной коммуникации: Учебник для вузов / Под ред. А. П. Садохина. – М., 2002. – С. 268.
7. Уголовно-исполнительное право России: Учебник / Под ред. В. И. Селиверстова. – 3-е изд., перераб. и доп. – М., 2003. – С. 517.
8. Юсанин В. Е. Систематически-предупредительная деятельность администрации ИТУ. – Рязань, 1990. – С. 248.
9. Писарев Д. Организационные и правовые основы самодеятельных организаций осуждённых: Автореф. дис. канд. юрид. наук. – М., 1979. – С. 9.
10. Характеристика осуждённых к лишению свободы. По материалам специальной переписи 1999 г. / Под ред. д-ра юрид. наук проф. А. С. Михлина. – М., 2001. – С. 99.